

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HALQ TA’LIMI VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

**2012-2013 O‘QUV YILIDA UMUMIY O‘RTA TA’LIM  
MAKTABLARINING BITIRUVCHI 9-SINF O‘QUVCHILARI  
UCHUN **ONA TILI, RUS TILI, TARIX, JISMONIY TARBIYA**  
FANLARIDAN YAKUNIY NAZORAT IMTIHON  
MATERIALLARI VA METODIK  
TAVSIYALAR**

**TOSHKENT – 2013**

Imtihon materiallari va tavsiyalar Respublika Ta'lim markazi qoshidagi ilmiy-metodik kengashlar tomonidan muhokama qilinib, nashrga tavsiya etilgan.

Maktab metodbirlashmalari imtihon biletlariga 15-20 % hajmda o'zgartirishlar kiritishi mumkin.

### **Tuzuvchilar**

#### **Ona tili**

G. Ziyodullayeva –RTM, filologiya fanlari bo`limi bosh bosh metodisti.

#### **Tarix**

A.Zamonov –O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqshtiruvchi-metodik markazning bo'lim boshlig'i

#### **Rus tili**

R.Turmuxamedova – Toshkent shahar, Uchtepa tumanidagi 203 maktabning oily toifali rus tili o`qituvchisi

O.Maxsudova –RTM, xorijiy tillar bo`limi bosh metodisti

I.Matniyzova – RTM, xorijiy tillar bo`limi boshlig`i.

### **Jismoniy tarbiya**

**Najimov F.F.** - RTM , Musiqa, san'at,mehnat ta'limi'jismoniy kamolot va salomatlik bo'limi bosh metodisti.

Nashr uchun mas'ul

*N. Sh. Turdiyev*

**Imtihon materiallarini ko'paytirib tarqatish ta'qiqlanadi.**

## ONA TILI

### IX sinf bitiruvchilarining yakuniy attestatsiyasi bo'yicha tavsiya

Ona tili ta'limi natijasida tekshiriladigan o'quvchilarning fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi (tugal fikr ifodalangan matn) murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrdan mujassamlashadi. O'quvchining ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda, yozgan ijodiy bayon hamda inshoda aks etadi. Shu maqsadda, umumta'lim maktablarining IX sinf bitiruvchilari yakuniy attestatsiyada ijodiy bayon yozadilar.

**Ijodiy bayon** ta'limiy bayonning murakkab turlaridan biri. Ijodiy bayon tanlangan matn mazmuniga o'quvchining ijodiy yondashishi jihatidan bayonning boshqa turlaridan farq qiladi. Ijodiy bayon o'quvchilarni tanlangan matnning badiiy jihatdan aniq va puxta, mantiqiy izchil, ijtimoiy hayot va voqelik bilan bog'liq holda yoritishga, mustaqil ijodiy fikrlashga, ona tilining boy ifoda vositalaridan unumli foydalanishga o'rgatish, yozma nutq malakalarini tarkib toptirish va savodxonlik darajasini oshirish, bu boradagi bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash maqsadida yoziladi.

Ijodiy bayonda ko'proq badiiy, ma'naviy-ma'rifiy masalalar, ijtimoiy va siyosiy hayot, fan va texnika yangiliklari, fanlararo bog'liqlik to'g'risidagi mavzular yoritiladi.

O'quvchilar bayonning quyidagi turlaridan foydalanib **ijodiy bayon** yozadilar.

- Matnga badiiy tasvir vositalarini kiritish orqali ijodiy bayon yozish
- Boshlab berilgan matnni o'z fikr-mushohadalari asosida davom ettirish
- Matn shaxsini o'zgartirib ijodiy bayon yozish
- Grammatik topshiriqli ijodiy bayon

Ijodiy bayon yozish jarayonida o'quvchilar quyidagilarga e'tibor berishlari lozim:

- matnning mazmun-mohiyatini chuqur anglab olishi, nima haqda yozish kerakligini bilishi;
- matn mavzusiga oid ma'lumotlarni eslab qolishi;
- matn rejasini (sodda) tuzishi;
- reja asosida asosiy fikrlarni aniq, ketma-ket bayon etilishiga erishishi;
- matndagi voqea-hodisalarni atroflicha mushohada etgan holda yoritishi;
- mavzuga doir o'z mustaqil fikr-mulohazalarini yozishga erishishi;
- jumalarni tuzishda uslubiy ravonlikka, imlo savodxonligiga e'tibor berishi;
- ijodiy bayon qoralama nusxasi tayyor bo'lgach, uni qayta o'qib chiqishi;
- tayyor bo'lgan yozma ishni oqqa ko'chirishi.

Bayon matnlari 3 variantda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan matn bo`lib, har bir matn bilan birga ijodiy bayon yozishning bir turi asosidagi topshiriq beriladi. Bir o`quvchi 3 ta variantdan (konvertdan) bittasini tanlab oladi. Tanlab olingan konvertdagi matn mavzusi doskaga yozib qo`yiladi. Ijodiy bayon uchun berilgan topshiriq ham doskaga yozib qo`yiladi. O`qituvchi tomonidan ijodiy bayon matni bir (lozim bo`lsa ikki) marta o`qib eshittiriladi. O`quvchilar eshitgan matn yuzasidan berilgan topshiriq asosida ijodiy bayon yozadilar. Ijodiy bayon hajmi kamida 3,5-bet bo`lishi lozim.

**Ijodiy bayon yozish uchun 2 astronomik soat beriladi.**

Ijodiy bayon matnlari o`qituvchi tomonidan tanlanadi va maktab metod birlashmasida muhokama qilinib ma`qullanadi. Ma`qullangan materiallar maktab rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

Umumiy o`rta ta`lim maktablarining IX sinflarida o`quvchilarning ta`lim tayyorgarligi darajasini baholashning reyting tizimiga ko`ra ijodiy bayon quyidagi umumlashirilgan BKM elementlari asosida tekshiriladi va baholanadi.

**Bayonni baholash mezon:**

T/r	Bilim, ko`nikma, malakalar	ball
1.	Reja mavzuga muvofiq tuzilgan, matn mazmuni to`g`ri bayon qilingan bo`lsa; bayon mantiqli va muntazam bo`lsa; so`z boyligi, ifoda qurilishi va uslubi adabiy til talablariga mos bo`lib; mazmun va ifodada bir, ikki xatoga yo`l qo`ygan bo`lsa; savodxonlikda qo`pol bo`lmagan bitta imlo yoki ikkita ishorat xatosi bo`lsa; uslubiy xato bo`lmasa.	5
2.	Matn reja asosida yoritilib, fikr bayonida muntazamlik qisman buzilgan bo`lsa; so`z tanlashda va ifoda qurilishida har xillik bo`lsa; mazmun va ifodada kamchilik bo`lib, savodxonlikda 2 imlo, 2 ishorat va ikkitagacha uslubiy xato mavjud bo`lsa.	4
3.	Mavzu to`liq yoritilmagan, mavzudan qisman chetga chiqilgan bo`lsa; aniq voqealar izohida nuqsonlarga yo`l qo`yilgan bo`lsa; so`z boyligi va ifoda tuzilishida nochorlik sezilib tursa; savodxonlikda 3 tagacha imlo, 4 tagacha ishorat, 3 tagacha uslubiy xatoga yo`l qo`yilgan bo`lsa.	3
4.	Matn mazmuni ko`p buzilgan bo`lsa; ish rejaga mos bo`lmasa, fikr bayoni va qurilishida kamchilik bo`lsa, fikrlar bir-biriga bog`lanmasa; so`z boyligi sayoz bo`lib; mazmun va ifodada 5-6 tagacha nuqsonga yo`l qo`yilgan bo`lsa; savodxonlikda 7 tagacha imlo, 7 tagacha ishorat va 7 tagacha uslubiy xatoga yo`l qo`yilgan bo`lsa.	2
5	Me`yorlash «2» ball uchun belgilangan mezondan oshsa.	1

## Ijodiy bayon uchun matnlardan namuna

### Ona yurti— oltin beshigi

Ona yurti-oltin beshigi. Xalq ona yurti ana shunday deb ulug'laydi. Vatanning har bir qarich yerini muqaddas bilib, uni sevisha, ardoqlashga da'vat etadi. Darhaqiqat, ona yurt — oltin beshik. Biz ana shu oltin beshikda dunyoga kelamiz, birinchi bor ilk qadam tashlaymiz, o'sib-ulg'ayib, voyaga yetamiz, el-yurt xizmatiga bel bog'laymiz. Ha, ona diyorning qadriga yetish, uning kamoloti, gullab-yashnashi, osoyishtaligi uchun qayg'urishni yoshlikdan ongimizga singdirilishida chuqur ma'no bor. Chunki, har qanday inson ona-Vatani, otabobolari o'tgan muqaddas zamin bilan faxrlanib yashaydi. Bu tuyg'u unga kuchquvvat beradi, aql-idrok ato etadi, jasratlarga chorlaydi, mardliklarga undaydi. Insondek yashash, mehnat qilish, hayot kechirishni ta'minlaydi.

Vatanni sevish — bu ona yurtning ravnaqi yo'lida halol mehnat qilish, o'zini qahramonliklarga tayyorlab borish demakdir. O'zing yashab turgan zaminni e'zozlash, tabiatini va nafosatini saqlash, uning go'zalligiga go'zallik qo'shish, odamlarni seva bilish, a'lo o'qish, xushxulq, xushsurat bo'lish demakdir. Vatanni sevish, uning har bir qarich yerini muqaddas bilib qadrlash go'daklik chog'imizdanoq ona allasi bilan qon-qonimizga singadi...

**(153 so'z . Malik Murodov. "Oltin sandiq ochildi" kitobidan)**

Topshiriqlar:

1. Matn mazmunini so'zlab bering.
2. Vatani haqida yodlagan she'rlaringiz, o'zingiz tug'ilib o'sgan qishloqingiz (shahar) haqidagi tasavvuringiz hamda matn mazmuni asosida bayon yozing.

### Do'stlik-oltindan qimmat

Do'stlik! Bu so'z tog'lardan azim, to'fonlardan qudratli, quyosh yanglig' tuyg'udir. Do'stlik bilan har qanday ofatni daf qilish, har qanday yovni mahv etish, har qanday to'siqni yanchib o'tish mumkin. Do'stlik bor yerda har qanday og'ir yengil, mushkullar oson bo'ladi, hal etilmagan muammo qolmaydi. Haqiqiy do'stlik oldida hatto o'lim ham chekinadi.

Darhaqiqat, «Do'stlik» so'zi elda muqaddas sanalib, mo'jizalar kaliti, omad, baxt-saodat omili, deb ataladi. Haqiqatan ham, qo'shiqdek jarangdor, osmondek musaffo, olmosdek jiloli, po'latdek mustahkam, quyosh nuridek qaynoq va yoqimli, mehriyodek hayotbaxsh bu so'zning zamirida olam-olam ma'no yotadi. Insonning azal-azaldan o'ziga do'st izlashi, quvonch va tashvishlarini u bilan baham ko'rishga intilishining boisi ham shunda.

Xalq do'sti yo'q kishini baxtsiz kishi deb ataydi. Do'stlari ko'plar esa dunyodagi eng baxtli insonlardir. Xalqimiz do'stlik va o'rtoqlikni azal-azaldan qo'shiqqa solib kuylab, bu haqda dostonlar to'qib, afsonalar

yaratgan. Bu mavzu xalqda, uning og`zaki ijodida asosiy mavzulardan hisoblanadi.

Do`stlik tufayli bahodirlar haybatli tog`larni teng ajratib, o`zlariga yo`l ochadilar, azim daryolarni kechib maqsad tomon olg`a intiladilar. Cho`lu biyobonlarni bog`-rog`larga aylantiradilar. Dushmanlarni mag`lub qiladilar, baxt-saodatga erishadilar.

(171 so`z. **Malik Murodov** .“Oltin sandiq ochildi” kitobidan

Topshiriqlar:

1. Matn mazmunini so`zlab bering.
2. Do`stlik haqida o`qigan kitoblaringiz, yod olgan she`rlaringiz va mazkur matn mazmuni asosida bayon yozing.

### **Iftixor**

Milliy g`urur- bu milliy iftixordir. Milliy iftixor millat o`zini yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir. Bu shunday bir kuchli ruhiy holatki, u tufayli tarixiy birlik, qon-qarindoshlik, til, madaniyat, ma`naviyat, iqtisodiy hayot va kelajak birligi millat vakillarining qalbidan chuqur o`rin oladi.

Milliy birdamlik tuyg`usi- milliy ongning negizidir. Milliy birdamlik yetuk va mukammal ma`naviy fazilat sifatida milliy ongi rivojlangan millatlarda to`laroq namoyon bo`ladi. Mahalliychilik va guruhbozliklar milliy birdamlik hissiyotining kuchsizlanishiga olib keladi.

Milliy iftixor millat ma`naviy kamolotining barcha jihatlarini, merosi va bugungi qadriyatlarni o`z ichiga oladi. Milliy istiqlol natijasida erishilgan va erishilajak iqtisodiy va ma`naviy yutuqlar ko`paygani sari O`zbekiston bilan faxrlanish hissi- milliy iftixor shunchalar kuchayib boraveradi. Milliy iftixor mamlakatimizning barcha fuqarolari uchun birdek tegishli va uning yuksala borishi uchun barcha fuqarolar barobar mas`uldirlar.

Xullasi kalom, yuqoridagi sharhlarimizdan ham ko`rinadiki, iymon serma`no, tabarruk, muqaddas so`z va xosiyatli tushunchadir. Bir so`z bilan aytganda, iymonli odam risoladagi fuqarodir. Bu O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Parlamentimiz tomonidan qabul qilingan fuqarolikka doir qonun-qoidalariga ham mos keladi.

(162 so`z. A.Ibrohimov. «Yorug`lug`» kitobidan)

***Savol va topshiriqlar:***

1. Matn mazmunini so`zlab bering.
2. O`zbekiston iftixorlaridan kimlarni bilasiz?
- 3.Reja tuzib, matnni kengaytirib bayon yozing.

### **Tushuntirish xati.**

“Tarix” fanidan yakuniy attestatsiya imtihonlari uchun taklif etilayotgan mazkur topshiriqlar umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari asosida tayyorlangan. Bunda topshiriqlar biletlarda aks ettirilgan bo'lib, har bir biletda uchtadan savol beriladi:

1. Jahon yoki O'zbekiston tarixida mavjud bo'lgan biror-bir davlatning tashkil topishiga oid savol beriladi va o'quvchi mazkur savolga quyida belgilangan baholash mezonlari asosida javob berishi kerak bo'ladi.

Na'muna uchun savol: Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi.

#### **Birinchi savol bo'yicha o'quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:**

1.	Davlatning tashkil etilgan davri yoki sanasini to'g'ri ayta olsa	1 ball
2.	Davlatga asos solgan shaxs nomini bilsa (agar asoschi nomi darslikda bo'lmasa, boshqa hukmdorlar nomini sanash lozim)	1 ball
3.	Davlat tashkil etilishidagi shart-sharoit haqida ma'lumot bersa	2 ball
4.	Davlat paydo bo'lgan hududni zamonaviy xaritadan ko'rsata olsa	1 ball
	<b>Jami:</b>	<b>5 ball</b>

2. O'zbekiston va Jahon tarixi darsida o'rganiladigan biror-bir mavzu beriladi. Masalan: Buyuk ipak yo'lining tarmoqlari.

#### **Ikkinchi savol bo'yicha o'quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:**

1.	tarixiy hodisalarning joyini aniqlab, tarixiy xaritadan voqea sodir bo'lgan joyni topa olishi;	1 ball
2.	tarixiy voqea va hodisalarni taqqoslab va qiyoslab, xulosa chiqara olishi;	1 ball
3.	tarixiy hodisa va jarayonni og'zaki ravon nutqda bayon qila olishi;	1 ball
4.	tarixiy atamalarning mazmunini bilishi va o'z o'rnida to'g'ri ishlata olishi;	1 ball
5.	tarixiy voqealarning aniq tarixiy davri yoki sodir bo'lgan sanasini to'g'ri ayta olishi.	1 ball
	<b>Jami:</b>	<b>5 ball</b>

3. Biletidagi uchinchi topshiriq dunyo ilm-fani va madaniyatiga hissa qo'shgan O'rta Osiyolik allomalardan biri haqidagi savoldan iborat bo'ladi. Masalan: Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy

#### **Uchinchi savol bo'yicha o'quvchilarning bilimlari quyidagi mezonlar asosida baholanadi:**

1.	Allomaning yashagan yillarini yoki yashagan davrini ayta olsa	1 ball
2.	Allomaning hayoti haqida ma'lumot bersa	1 ball
3.	Qaysi fan sohalarida ijod qilganligi haqida ma'lumot bersa	1 ball
4.	Allomaning yozgan asarlarini sanab, ayrimlarining mohiyatini ochib bersa	1 ball

5.	O‘zbekistonda allomaning yubileyi nishonlanishiga yoki xotirasi tiklanishiga oid ma’lumot bersa	1 ball
	<b>Jami:</b>	<b>5 ball</b>

**Izoh:** har bir yo‘nalish bo‘yicha chiqqan ballar yaxlitlanib (Bunda yaxlitlangan ball 4,5 dan past bo‘lsa – 4 baho, yuqori bo‘lsa – 5 baho. Masalan:  $5+4+5=14:3=4,6$  yaxlitlansa 5 baho,  $4+4+5=13:3=4,3$  yaxlitlansa 4 baho), yakuniy attestatsiya imtihoni sinovining yakuniy bali sifatida sinf jurnalining “O‘zbekiston tarixi” sahifasiga qo‘yiladi.

**Eslatma:** O‘quvchilarga bilet olganlaridan keyin tayyorgarlik ko‘rishlari uchun 15, javob berish uchun esa 10 daqiqa vaqt beriladi.

Imtihon savollariga maktab metod birlashmasi qarori bilan tuzatishlar, qo‘shimchalar va takliflar kiritilishi mumkin. Imtihon topshirish jarayonida o‘quvchi o‘z fikrini faqat darslik materiallari asosida emas, balki boshqa manbalarga tayangan holda ham bayon qilishi mumkin. Shuningdek, tarix fani chuqurlashtirib o‘qitiladigan sinf va maktablarda imtihon biletleri 4 ta savoldan iborat bo‘ladi. Tarix fani chuqurlashtirib o‘qitiladigan sinf va maktablarning imtihondagi to‘rtinchi savol maktab metod birlashmasi tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi. Savol tuzishda Prezident Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”, “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” nomli asarlari, “Dunyo dinlari tarixi” darsligi, tarixning arxeologiya, etnografiya bo‘limlariga oid ma’lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

### 1-bilet

1. Toshkent bekligining tashkil topishi.
2. V-XI asrlarda Yevropada ilm-fan va madaniyat.
3. Mahmudxo‘ja Behbudiy.

### 2-bilet

1. Yunon-Baqtriya davlatining tashkil topishi.
2. Buyuk ipak yo‘lining tarmoqlari.
3. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy.

### 3-bilet

1. Qoraxoniylar davlatining tashkil topishi.
2. Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi protektoratiga aylantiriishi.



3. Alisher Navoiy.

#### **4-bilet**

1. Yangi Bobil podsholigining tashkil topishi.
2. Andijon qo'zg'oloni.
3. Zahiriddin Muhammad Bubur.

#### **5-bilet**

1. Muqaddas Rim imperiyasining tashkil topishi.
2. Qadimgi Misr madaniyati.
3. Mirzo Ulug'bek

#### **6-bilet**

1. Bobil podsholigining tashkil topishi.
2. Qoraqaloqar Turkiston general-gubernatorligi tarkibida.
3. Imom al-Buxoriy.

#### **7-bilet**

1. Xioniylar davlatining tashkil topishi.
2. Yevroada Saib yurishlarining boshanishi.
3. Ahmad al-Farg'oniy.

#### **8-bilet**

1. Rim respublikasining tashkil topishi.
2. Turkistonda jadidchilik harakatining vujudga kelishi.
3. Abu Ali ibn Sino.

#### **9-bilet**

1. Kiyev Rusi davlatining tashkil topishi.
2. Markaziy Osiyo xalqlarining ahamoniylarga qarshi kurashi.
3. Abu Mansur al-Moturidiy.

#### **10-bilet**

1. Ashtarxoniylar davlatining tashkil topishi.

2. Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ullarning Movarounnahrni boib olishi.
3. Muhammad Aminxo'ja Muqimiy.

### **11-bilet**

1. Qadimgi Urartu davlatining tashkil topishi.
2. XIX asr oxiri – XX asr boshida Afg'oniston.
3. Ahmad Donish.

### **12-bilet**

1. Safaviylar davlatining tashkil topishi.
2. Somoniylar davlatining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti.
3. Shermuhammad Munis.

### **13-bilet**

1. Turkiston genera-gubernatorligining tashkil topishi.
2. Birinchi jahon urushining Turkistonga ta'siri.
3. Bahouddin Naqshband.

### **14-bilet**

1. Rim imperiyasining tashkil topishi.
2. Birinchi jahon urushi va uning oqibatlari.
3. Abu Nasr Farobiy.

### **15-bilet**

1. Xiva xonligining tashkil topishi.
2. Qadimgi Afina demokratiyasi.
3. Mirzo Abdulqodir Bedil.

### **16-bilet**

1. Qadimgi Ossuriya davlatining tashkil topishi.
2. Fransiyada diniy urushlarning boshlanishi.
3. Berdimurod Qarg'aboy og'li – Berdaq.

### **17-bilet**

1. Saljuqiylar davlatining tashkil topishi.

2. Xiva xonigining tugatilishi.
3. Mohlaroyim – Nodira.

### **18-bilet**

1. Taypinlar davlatining tashkil topishi.
2. Mo'g'ullarga qarshi milliy-ozodik kurashlari.
3. Abu Rayhon Beruniy.

### **19-bilet**

1. Salavkiylar davlatining tashkil topishi.
2. Buyuk fransuz inqilobi va uning ahamiyati.
3. Abulg'oziy Bahodirxon.

### **20-bilet**

1. Amir Temur davlatining tashkil topishi.
2. Turkistonda 1916-yil qo'zg'olonlarning boshlanishi.
3. Burhonuddin Marg'inoniy.

### **21-bilet**

1. Xitoyda Min imperiyasining tashkil topishi.
2. Buxoro amirigining madaniy hayoti.
3. Munavvar Qori Abdurashidxonov.

### **22-bilet**

1. Qadimgi Sin imperiyasining tashkil topishi.
2. Yosh buxoroliklar faoliyati va Buxoro amirligining tugatilishi.
3. Muhammad Rizo Ogahiy.

### **23-bilet**

1. Dehli sultonligining tashkil topishi.
2. Buyuk fransuz burjua inqilobi va monarxiyaning tugatilishi.
3. Mahmud az-Zamaxshariy.

### **24-bilet**

1. Yunon-Baqtriya davlatining tashkil topishi.
2. Toshkentda “vabo isyoni” ning boshlanishi, uning sabablari, oqibatlar va ahamiyati.
3. Ahmad al-Farg‘oniy.

### **25-bilet**

1. Safforiylar davlatining tashkil topishi.
2. Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyoga istilochilik yurishlarining boshlanishi.
3. Boborahim Mashrab.

### **26-bilet**

1. Angliya qirolligining tashkil topishi.
2. Shayboniylar davrida Buxoro xonligida ilm-fan va madaniyat.
3. Bahouddin Naqshband.

### **27-bilet**

1. Fransiyada I-imperiyaning tashkil topishi.
2. XIX asr oxiri – XX asr boshida Turkistonda me‘morchilik.
3. Ahmad Yassaviy.

### **28-bilet**

1. Yangi Misr podsholigining tashkil topishi.
2. Amir Temur davlatining davlat boshqaruvi.
3. Abulg‘oziy Bahodirxon.

### **29-bilet**

1. Xiva qo‘ng‘irotlari davlatining tashkil topishi.
2. Xristianlikning Yevropa davlatlariga tarqaishi.
3. Abu Nasr Farobiy.

### **30-bilet**

1. Mauriya davlatining tashkil topishi.
2. Qo‘qon xonligining tugatilishi va Farg‘ona viloyatining tuzilishi.
3. Ajiniyoz.

## РУССКИЙ ЯЗЫК

Итоговая аттестация в 9 классах школ с узбекским и другими языками обучения проводится в устной форме. На аттестации учащимся предоставляется возможность показать свои знания, умения и навыки в устной разговорной речи, приобретённые за весь учебный период в общеобразовательной школе. Аттестационный материал состоит из 25 билетов. В каждом билете по три задания.

Цель первого задания является проверка и оценка знаний учащихся по содержанию заранее подготовленных незнакомых текстов, умение определять главную мысль прочитанного текста своими словами через призму своего восприятия. Объём текста высказываний должен состоять из 7-8 предложений (100-110 слов) А также учитывается техника беглого и правильного чтения вслух, соблюдение интонации.

Целью второго задания является проверка и оценка знаний учащихся по содержанию изученных текстов, умений определять главную мысль прочитанного текста своими словами через призму своего восприятия. А также учитывается техника беглого и правильного чтения вслух, соблюдение интонации.

Цель третьего задания – проверка и оценка знаний выпускников по соблюдению правил интонации, умений правильного произношения звуков русской речи и навыков по выразительному чтению наизусть.

Конверт с экзаменационными заданиями, подготовленные методическими объединениями, запечатанные и проштампованные директором, вскрываются в момент начала аттестации председателем аттестационной комиссии в присутствии всех учеников, о чём составляется акт, о вскрытии конвертов. На подготовку отводится 15 минут.

### Критерии оценки

Беглое и выразительное чтение, чтение наизусть стихотворений, правильное произношение слов, правильная расстановка интонаций в предложениях, полное восприятие общего содержания прочитанного текста и составление самостоятельных высказываний.	5
Беглое и выразительное чтение, но при этом учащимся допускаются ошибки в произношении отдельных слов. Знание общего содержания и отдельных частей текста.	4
При беглом и выразительном чтении учащийся допустил ошибки в произношении слов и интонировании предложений, воспринял общее содержание текста, но не смог рассказать его отдельных частей.	3
Допустил большое количество ошибок, понял смысл отдельных предложений, но не сумел передать основную мысль прочитанного текста.	2
Прочитал текст с большим количеством речевых ошибок, воспринял смысл лишь отдельных слов и словосочетаний.	1

**Ниже приводятся образцы текстов по первому заданию:**

### **История музыки.**

Музыка играла важную роль в жизни людей ещё на заре человеческого общества.

Матери, напевая, укачивали своих детей, воины, воодушевляя себя перед битвой, устрашали врагов воинственными песнями-кличами, пастухи протяжным зовом собирали стада. Вместе с тем при выполнении какой-нибудь работы размеренные выкрики помогали людям объединиться, помогая легче справиться с ней. В радости и горе песни также помогали людям. Так появились не только колыбельные, военные, трудовые песни, но и обрядовые – свадебные песни, плачи. Эти древнейшие формы музыки продолжают развиваться и сохраняются в наши дни.

Музыка – это искусство, отражающее окружающую нас действительность в звуковых образах. Так же, как и кино, театр, изобразительное искусство, она с большой художественной силой передаёт то, чем живут люди. (109 слов)

### **Люби и охраняй природу !**

Охрана природы - считается делом святым. Это сохранение и умножение богатств Родины.

Призыв об охране природы должен быть обращён прежде всего именно к молодёжи. Ей жить и хозяйствовать на этой земле, ей и украшать её. Чем раньше молодёжь примется за это дело, тем больше накопится зелёного добра ко времени её вступления в полноценное наследство. Живое дерево - есть капитал, который множится с каждым часом. Свою любовь к Родине мало только декларировать её, кроме того, надо претворять в живые дела.

Оглянись вокруг себя, молодой человек. Всё, что ты видишь, соткано, сложено из пламенной любви твоих предков, твоих старших сограждан. Любовь к Родине надо воспитывать с любви к родной природе. (108 слов)

### **Билет № 1**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.
2. Прочитайте выразительно стихотворение «Шаганэ, ты моя Шаганэ».
3. Выразительное чтение наизусть стихотворение С. Есенина (на выбор).

### **Билет № 2**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.
2. Прочитайте и перескажите отрывок из биографии А.С.Пушкина.
3. Наизусть стихотворение Н.М.Рубцова «Детство».

### **Билет № 3**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.

2. Расскажите биографию Н.М.Рубцова.
3. Наизусть одно из любимых стихотворений.

#### **Билет № 4**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.
2. Прочитайте выразительно отрывок из стихотворения Б.Л.Пастернака «Во всём мне хочется дойти».
3. Наизусть стихотворение А.С.Пушкина (на выбор).

#### **Билет № 5**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.
2. Расскажите биографию С.А.Есенина.
3. Наизусть стихотворение Булата Окуджавы «Чёрный мессер».

#### **Билет № 6**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.
2. Прочитайте стихотворение Юлии Друниной «Зинка» и перескажите его содержание.
3. Наизусть стихотворение С.Орлова «Его зарыли в шар земной».

#### **Билет № 7**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.
2. Прочитайте и перескажите отрывок из рассказа М.А. Шолохова «Судьба человека».
3. Наизусть стихотворение С.Гудзенко «Надпись на камне».

#### **Билет № 8**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.
2. Прочитайте отрывок из биографии А.Платонова и перескажите его содержание.
3. Наизусть стихотворение Н.С.Гумилёва «Жирафы».

#### **Билет № 9**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.
2. Расскажите биографию Н.А.Шолохова.
3. Наизусть стихотворение С.Есенина «Черёмуха».

#### **Билет № 10**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.
2. Расскажите биографию А.Т.Твардовского.
3. Наизусть своё любимое стихотворение.

#### **Билет № 11**

- 1 Прочитать и пересказать содержание данного текста.

2. Прочитайте отрывок из поэмы А.Т.Твардовского «Василий Теркин» главу «Кто стрелял?». Перескажите его содержание.

3. Наизусть стихотворение Н.М. Рубцова «В горнице».

#### **Билет № 12**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.

2. Прочитайте отрывок из первой части рассказа А.П.Платонова «Юшка». Перескажите её содержание.

3. Наизусть стихотворение Б.Л.Пастернака «Снег идёт».

#### **Билет № 13**

1 Прочитать и пересказать содержание данного текста.

2. Прочитайте отрывок из II-части рассказа А.П.Платонова «Юшка». Перескажите её содержание.

3. Наизусть стихотворение С.Есенина «Низкий дом с голубыми ставнями».

#### **Билет № 14**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.

2. Прочитайте и перескажите содержание отрывка из III-части рассказа А.П.Платонова «Юшка».

3. Наизусть стихотворение С.А.Есенина «Свет вечерний шафранного края».

#### **Билет № 15**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.

2. Прочитайте и перескажите биографию А.М.Горького.

3. Наизусть стихотворение Н.С.Гумилёва «Капитаны».

#### **Билет № 16**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.

2. Прочитайте стихотворение Н.С.Гумилёва «Капитаны».

3. Расскажите наизусть любимое стихотворение.

#### **Билет № 17**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.

2. Прочитайте выразительно стихотворение С.Гудзенко «Надпись на камне».

3. Наизусть стихотворение Б.Окуджава «Чёрный мессер».

#### **Билет № 18**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.

2. Прочитайте выразительно стихотворение Н.М.Рубцова. Расскажите о детстве поэта.

3. Наизусть отрывок из стихотворения Ю. Друниной «Зинка».



### **Билет № 19**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.
2. Прочитайте текст и перескажите его содержание (на выбор).
3. Наизусть стихотворение С.А.Есенина «Шаганэ, ты моя Шаганэ»

### **Билет № 20**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.
2. Перескажите биографию А.Т.Твардовского. Какие крупные произведения написаны поэтом?
3. Наизусть одно из любимых стихотворений С.А.Есенина.

### **Билет № 21**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.
2. Прочитайте текст и перескажите его содержание (на выбор).
3. Наизусть одно из стихотворений русских поэтов о природе.

### **Билет № 22**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.
2. Расскажите о последних годах жизни Н.Рубцова.
3. Наизусть стихотворение Н.М.Рубцова «Детство».

### **Билет № 23**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.
2. Расскажите о теме природы в творчестве С. Есенина.
3. Прочитайте наизусть стихотворение С.Орлова «Его зарыли в шар земной»

### **Билет № 24**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.
2. Прочитайте отрывок из биографии М.Ю.Лермонтова. Перескажите его содержание.
3. Наизусть одно из стихотворений А.С.Пушкина (на выбор).

### **Билет №25**

1. Прочитать и пересказать содержание данного текста.
2. Прочитайте текст и перескажите его содержание (на выбор).
3. Наизусть одно из стихотворений М.Ю.Лермонтова (на выбор).

## Jismoniy tarbiya

### Tushuntirish xati

2012-2013 o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablari 9 -sinf o'quvchilari jismoniy tarbiya fanidan amaliy va nazariy qismlaridan yakuniy nazorat imtihonlarini topshiradi.

Yakuniy nazorat imtihonini o'tkazishdan asosiy maqsad, DTS va o'quv dasturida berilgan mezon talablari asosida o'quvchilarning olgan bilim, ko'nikma va malakalarini baholashdir.

Yakuniy nazorat imtihonlarini talab darajasida o'tkazish maqsadida 10 kun oldin maktab sport maydoni (zali) va sport anjomlari, imtihon materiallari tayyorlab qo'yilishi kerak.

Maktab direktorining buyrug'i bilan imtihonni qabul qilish kuni, hay'at a'zolari, qo'shimcha maslahat darslari va amaliy mashg'ulotlar jadvali tashkil qilinadi. Yakuniy nazorat imtihoni bo'yicha hay'at a'zolari tarkibi jami 3 kishidan iborat bo'lib, unga imtihon raisi (maktab direktori), imtihon qabul qiluvchi (jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi), assistent (yordamchi, jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi) kiradi. Shu bilan birga yakuniy nazorat imtihonning amaliy qismida tibbiy xodim bo'lishi shart.

Umumiy o'rta ta'lim maktabining sharoiti va mavjud sport anjomlaridan kelib chiqqan holda yakuniy nazorat imtihonining amaliy mashg'ulot biletlariga 25%gacha o'zgartirish kiritishlari mumkin. Shu bilan birga tibbiyot muassasalari tomonidan jismoniy tarbiya mashg'ulotlaridan ozod etish to'g'risidagi ma'lumotnomaga ega bo'lgan o'quvchilar yakuniy nazorat imtihonidan ozod e'tiladi. Ushbu o'quvchilarning yakuniy ballari o'quv yilida (choraklar davomida) olgan baholaridan kelib chiqqan holda qo'yiladi. Mazkur masalalar maktabning pedagogik kengashida ko'rib chiqilib, muhokama etilgan bo'lishi shart.

**Yakuniy nazorat imtihoni materiallari.** Yakuniy nazorat imtihon materiallari hujjatlari har bir sinf uchun alohida (10 talik fayil) bo'lishi kerak. Bunda o'quvchilar (ozod etilgan o'quvchilar alohida) ro'yxati; imtihon biletleri 11 ta (amaliy mashg'ulot biletleri og'il va qiz bolalar uchun 5 tadan, nazariy savollar 1 ta) muhirlangan konvertida bo'lishi; imtihon dalolatnomasi (muhirlangan konvertlar o'quvchilar tomonidan tortilib, ochilganligi hususida), bayyonnoma (o'quvchilar amaliy va nazariy qismlardan erishgan me'yor natijalari hamda ballari qayd etib borish uchun); nazariy qism uchun katak daftari (maktab stampi qo'yilgan) bo'lishi lozim.

Amaliy va nazariy qism bir kunda o'tkazilishi, konvertlari imtihon kuni ochilishi hamda dalolatnoma, bayonnomalari imtihon jarayonida to'ldirib borilishi shart.

**Yakuniy nazorat imtihonining amaliy mashg'ulotlarini o'tkazish tartibi.** Yakuniy nazorat imtihonining amaliy qismini topshirish uchun sinf ikki guruhga, ya'ni og'il va qiz bolalarga bo'linadi. Har bir guruhdan bittadan o'quvchi (5 ta) konvertlardan birini tortadi. Shu tortilgan konvertdagi bilet

bo'yicha o'z guruh a'zolari bilan ko'rsatilgan tartibda birin-ketin topshiradi. Qolgan konvertlar ochilmaydi.

**Yakuniy nazorat imtihonining nazariy qismini o'tkazish tartibi.** Nazariy qism oldindan tayyorlab qo'yilgan sinf xonasida o'tkaziladi. Bunda nazariy qism konverti ixtiyoriy biror-bir o'quvchi tomonidan ochiladi. Har bir o'quvchi nazariy qism uchun tayyorlab qo'yilgan 30 ta savol biletlaridan bittasini tortadi. Savol biletlariga (nazariy qism uchun maktab stampi qo'yilgan katak daftarlariga) yozma ravishda javob berib, imtihon hay'at a'zolariga o'qib beradi.

**Yakuniy nazorat imtihoni bo'yicha o'quvchilarni baholash.** O'quvchilarni amaliy sinov mashg'ulotlari bo'yicha baholashda erishgan me'yorlariga ko'ra baholanadi. Nazariy qism bo'yicha tortilgan savolga aniq javoblari hamda jismoniy tarbiya va sportga bog'liqlik asosida bergan ma'lumotlariga ko'ra baholanadi. O'quvchining har bir amaliy mashg'ulotidan va nazariy savolga bergan javoblari 5 ballik tizim asosida baholanadi. Ballar umumlashtirilib o'rtacha baho chiqariladi. Masalan:  $5+4+4+4+4=21:5=4.2$  yaxlitlangan holda 4 baho qo'yiladi.

## 1. Yakuniy nazorat imtihon dalolatnomasini to'ldirish namunasi.

### DALOLATNOMA

Tuzildi ushbu dalolatnoma, shu haqdakim 2013 yil "\_\_\_" may kuni \_\_\_ maktabning 9-"\_\_" sinf o'quvchilari tomonidan yakuniy nazorat imtihon konvertlari ochildi.

Biz kim dalolatnoma tuzuvchilar: imtihoni hay'ati raisi \_\_\_\_\_ (F.I.), imtihon oluvchi o'qituvchi \_\_\_\_\_ (F.I.), imtihon assisenti \_\_\_\_\_ (F.I.) lar nazorati ostida amalga oshirildi. Sinf o'quvchilaridan \_\_\_\_\_ nafari ishtirok etdi.

Amaliy:

O'g'il bolalardan \_\_\_\_\_ (F.I.) Bilet № \_\_\_\_\_ (imzo)

Qiz bolalardan \_\_\_\_\_ (F.I.) Bilet № \_\_\_\_\_ (imzo) tortildi.

Nazariy: \_\_\_\_\_ (F.I.) \_\_\_\_\_ (imzo) tomonidan ochildi.

Imtihon hay'ati raisi: \_\_\_\_\_ (F.I.) \_\_\_\_\_ (imzo)

Imtihon oluvchi o'qituvchi: \_\_\_\_\_ (F.I.) \_\_\_\_\_ (imzo) M.O'.

Imtihon assistenti: \_\_\_\_\_ (F.I.) \_\_\_\_\_ (imzo)

## 2. Yakuniy nazorat imtihon bayyonomasini to'ldirish namunasi.

2013 yil \_\_\_\_\_-may № \_\_\_\_\_ umumiy o'rta ta'lim maktabi

9 - "\_\_\_" sinf \_\_\_ (o'g'il, qiz bolalar) Bilet № \_\_\_\_\_

### BAYYONNOMASI

№	O'quvchilarning F. I.	60 m yugurish	Gimnastika	Basketbol	Turgan joydan uzunlikka	Nazariy	Umumi y ball

								sarash				
		natija	ball	natija	ball	natija	ball	natija	ball	Bilet №	ball	
1.	<i>Tohirov O'ktam</i>	<u>10,5</u>	<u>5</u>	-	<u>4</u>	<u>2</u>	<u>4</u>	<u>140</u>	<u>4</u>	<u>15</u>	<u>4</u>	<u>4</u>
2.												
3.												

Imtihon hay'ati raisi: \_\_\_\_\_ (F.I.) \_\_\_\_\_ (imzo)  
 Imtihon oluvchi o'qituvchi: \_\_\_\_\_ (F.I.) \_\_\_\_\_ (imzo)  
 Imtihon assistenti: \_\_\_\_\_ (F.I.) \_\_\_\_\_ (imzo)

M.O'. " \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 2013 yil

### Nazariy savollarga berilgan javoblarni baholash mezonlari

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	Savol mazmunan to'la ochib berilsa, fikrlari to'liq hamda aniq bo'lib, jismoniy tarbiya va sportga bog'liq holda ifodalay olsa.	5
2.	Javob mazmunan to'g'ri, jismoniy tarbiya va sportga bog'liq holda bo'lib, lekin ikkilanish va taxmin bo'lsa.	4
3.	Javob mazmunan to'liq ochib berilmasa, qisman to'g'ri bo'lib, tushunchalarni izohlashda bir qancha xatoliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	3
4.	Javob mazmunan to'liq ochib berilmasa, fikrlar va tushunchalar to'g'ri xulosalanmagan bo'lib, xatolar ko'p bo'lsa.	2
5.	Javob mazmunan to'liq ochib berilmasa, fikrlar va tushunchalar noto'g'ri talqin etilgan, xatolar ko'p bo'lsa.	1

### Amaliy mashg'ulotlarni baholash mezonlari

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	Talab qilingan mashqlarni bajarishda mashq elementlari bajarilishi ketma-ketlik asosida va ular o'rtasidagi bog'lanish to'g'ri ishonchli bajarilgan bo'lib, sport anjomlaridan foydalanishda xavsizlik texnika qoidalariga rioya etgan bo'lsa.	5
2.	Talab qilingan mashq erkin, ishonchli elementlarga bog'liq holda bajarilib, 1-2 ta juz'iy xatoga yo'l qo'yilib, sport anjomlaridan foydalanishda xavsizlik texnika qoidalariga rioya etgan bo'lsa.	4
3.	Talab qilingan mashq ishonchsiz, elementlar qisman bajarilib, 3-4 ta juz'iy xatoga yo'l qo'yilib, sport anjomlaridan foydalanishda xavsizlik texnika qoidalariga rioya etgan bo'lsa.	3
4.	Talab qilingan mashq ishonchsiz, elementlar qisman bajarilib,	2

	3-4 ta juz'iy xatoga yo'l qo'yilib, sport anjomlaridan foydalanishda xavsizlik texnika qoidalariga rioya etgan bo'lsa. Mashq bajarishda 3 tadan ortiq va juz'iy qo'pol xatoga yo'l qo'yilsa.	
5.	Talab qilingan mashq ishonchsiz, elementlar bajarilishida qo'pol xatolarga yo'l qo'yilib, sport anjomlaridan foydalanishda xavsizlik texnika qoidalariga rioya etilmasa, harakat sust bo'lib, mashq to'liq bajarilmasa.	1

### **Nazariy savollar**

1. Inson salomatligiga salbiy ta'sir qiluvchi odatlar va ularning oqibatlari.
2. Basketbol o'yinining asosiy qoidalarini.
3. Kurash bilan shug'ullanishdan oldin qanday jismoniy tayyorgarlik mashqlari bajariladi?
4. Gimnastika sport turi haqida. Gimnastikada foydalaniladigan sport anjomlarni sanab bering.
5. Jismoniy mashg'ulot jarayonida asosiy texnika xavfsizligi va shikastlanganda birinchi yordam ko'rsatish.
6. Respublikamizda joriy etilgan uch bosqichli sport musobaqalari. "Umid nihollari" sport musobaqalari qachondan boshlab o'tkazilib kelinmoqda va qanday sport turlarini o'z ichiga oladi?
7. Suzishning qanday usullarini bilasiz?
8. Jismoniy sifatlari va uni rivojlantirish uslublariga tushuncha bering.
9. Tennis to'pini uloqtirish necha turi mavjud hamda qo'l va oyoq harakat qoidalarini tushuntirib bering?
10. Basketbol o'yini texnika va taktikasi.
11. Shaxsiy va jamoat gigiyenasi qoidalariga qanday rioya qilish kerak. "Sog'lom turmush tarzi" deganda nimani tushunasiz?
12. Qo'l to'pi o'yinining asosiy qoidalarini qanday?
13. Yugurish turlari va ularning bir biridan farqi nimada?
14. "O'zbekiston iftixori" faxriy unvoni va unga sazavor bo'lgan sportchilar (10 nafarini).
15. Harakatli va sport o'yinlariga ta'rif bering.
16. Olimpiya o'yinlarining kelib chiqish tarixi. (MOQ, XOQ).
17. Basketbol o'yini qachon, qayerda va kim tomonidan oylab topilgan hamda o'yin maydoni o'lchami, to'pining og'irligi, aylanasi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
18. "Yengil atletika" nechta bo'limga bo'linadi va ularni sanab bering?
19. Sakrashni bajarishda nechta faza amalga oshiriladi?
20. Voleybol o'yinida hujum va himoya taktikasi nimalardan iborat?
21. Saf mashqlari va turlari.
22. Qo'l to'pi o'yini qachon, qayerda va kim tomonidan o'ylab topilgan hamda o'yin maydoni o'lchami, to'pining og'irligi, aylanasi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
23. Arqonga tirmashib chiqish usullari va ularni bajarish tartibi.

24. Voleybol o'yinining asosiy qoidalari.
25. Kurash usullaridan qaysilarini bilasiz va ularga izoh bering.
26. Futbol o'yini qachon, qayerda oylab topilgan hamda o'yin maydoni o'lchami, to'pining og'irligi, aylanasi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
27. Futbol o'yinining asosiy qoidalari. Qanday futbol o'yini atamalarini bilasiz va ularga izoh bering.
28. Voleybol o'yini qachon, qayerda va kim tomonidan o'ylab topilgan hamda o'yin maydoni o'lchami, to'pining og'irligi, aylanasi haqida qanday ma'lumotlarga egasiz?
29. "Alpomish" va "Barchinoy" maxsus test sinovlari haqida nimalarni bilasiz?
30. O'zbekistonda ommaviy sport turlari qaysilar?

### **Amaliy sinov - mashqlari** **(Qiz bolalar)**

#### **1-Bilet**

1. **Yengil atletika.** Yugurib kelib uzunlikka sakrash.  
**Me'yor:** (sm) 350 – 320 – 300 – 280.
2. **Gimnastika.** Gimnastik o'rindiqqa tayanib, qo'llarni bukish va yozish.  
**Me'yor:** (marta) 13 – 10 – 8 – 6.
3. **Basketbol.** Basketbol to'pini 8 imkoniyatdan jarimadan tashlash.  
**Me'yor:** (aniq otilgan to'plar soni / marta) 4 – 3 – 2 – 1.
4. **Yengil atletika.** 2000 metrga yugurish.  
**Me'yor:** Vaqt hisobga olinmaydi.

#### **2-Bilet**

1. **Yengil atletika.** 60 metrga yugurish.  
**Me'yor:** (soniya) 9,5 – 10,0 – 10,5 – 11,0.
2. **Gimnastika.** Akrobatika: Ikki marta oldinga, orqaga umbaloq oshish, kurakda turish. "Ko'prik" hosil qilish.  
**Me'yor:** Texnikasiga ahamiyat qaratish.
3. **Qo'l to'pi.** Qo'l to'pini texnikaga ahamiyat qaratgan holda 30 metr masofaga to'pni urib yugurish.  
**Me'yor:** (soniya) 6,8 – 6,9 – 7,0 – 7,2.
4. **Yengil atletika.** Turgan joyidan uzunlikka sakrash.  
**Me'yor:** (sm) 190 – 170 – 150 – 130.

#### **3-Bilet**

1. **Yengil atletika.** Tennis to'pini (150 gr) uzoqqa uloqtirish.  
**Me'yor:** (metr) 28 – 23 – 18 – 13.
2. **Gimnastika.** Qo'shpoyada turli harakat mashqlarini (yurish, burilish) bajarish. "Qaldirg'och" hosil qilish.  
**Me'yor:** Texnikasiga ahamiyat qaratish.
3. **Voleybol.** Voleybol texnika elementlarini bajarish: to'pni ikkila qo'l bilan qabul qilish, uzatish, to'pni yuqoridan uzatish (uzatilgan to'p maydonning belgilangan joyiga albatta tushishi).

- Me'yor:** Texnikasiga ahamiyat qaratish.
- 4. Yengil atletika.** 1000 metrga yugurish.  
**Me'yor:** (daqiqqa/soniya) 5,00 – 5,30 – 6,00 – 6,30.

#### **4-Bilet**

- 1. Yengil atletika.** Yugurib kelib balandlikka sakrash.  
**Me'yor:** (sm) 115 – 105 – 95 – 85.
- 2. Gimnastika.** 5 metrli arqonga, qo'llar yordamida tirmashib chiqish (texnikaga rioya etgan holda).  
**Me'yor:** (soniya) 10 – 13 – 18 – 20.
- 3. Basketbol.** Basketbol to'pini 8 imkoniyatdan jarimadan tashlash.  
**Me'yor:** (aniq otilgan to'plar soni / marta) 4 – 3 – 2 – 1.
- 4. Yengil atletika.** 4x10 metrga mokisimon yugurish.  
**Me'yor:** (soniya) 10,0 – 10,5 – 11,0 – 11,5.

#### **5-Bilet**

- 1. Yengil atletika.** Tennis to'pini (150 gr) uzoqqa uloqtirish.  
**Me'yor:** (metr) 28 – 23 – 18 – 13.
- 2. Gimnastika.** 110 sm balandlikdagi gimnastika “kozyoli” ustidan oyoqlarni kerib sakrab o'tish.  
**Me'yor:** Texnikasiga ahamiyat qaratish.
- 3. Futbol.** Texnikaga ahamiyat qaratgan holda 30 metr masofaga to'p bilan yugurish.  
**Me'yor:** (soniya) 5,7 – 6,0 – 6,3 – 6,5.
- 4. Yengil atletika.** 1000 metrga yugurish.  
**Me'yor:** (daqiqqa/soniya); 5,00 – 5,30 – 6,00 – 6,30.

#### **(O'g'il bolalar)**

#### **1-Bilet**

- 1. Yengil atletika.** Yugurib kelib balandlikka sakrash.  
**Me'yor:** (sm) 120 – 110 – 100 – 90.
- 2. Gimnastika.** 120 sm balandlikdagi gimnastik “kon” ustidan oyoqlarni kerib sakrab o'tish.  
**Me'yor:** Texnikasiga e'tibor qaratish.
- 3. Qo'l to'pi.** Qo'l to'pini texnikaga ahamiyat qaratgan holda 30 metr masofaga to'pni urib yugurish  
**Me'yor:** (soniya) 6,6 – 6,7 – 6,8 – 7,0.
- 4. Yengil atletika.** 2000 metrga yugurish.  
**Me'yor:** (daqiqqa/soniya) 9,30 – 10,00 – 11,00 – 12,00.

#### **2-Bilet**

- 1. Yengil atletika:** 4x10 metrga mokisimon yugurish.  
**Me'yor:** (soniya) 9,5 – 9,8 – 10,3 – 10,8.
- 2. Gimnastika.** 5 metrli arqonga, qo'llar yordamida tirmashib chiqish (texnikaga rioya etgan holda).

- Me'yor:** (soniya) 10 – 13 – 18 – 20.
- 3. Futbol:** Futbol to'pi bilan oyoqda janglyorlikni bajarish.  
**Me'yor:** (marta) 20 – 18 – 15 – 12.
- 4. Yengil atletika.** Yugurib kelib uzunlikka sakrash.  
**Me'yor:** (sm) 400 – 360 – 320 – 300.

### **3-Bilet**

- 1. Yengil atletika:** Yugurib kelib tennis to'pini (150 gr) uloqtirish.  
**Me'yor:** (metr) 45 – 40 – 33 – 25.
- 2. Gimnastika.** Baland turnikda tortilish.  
**Me'yor:** (marta) 9 – 7 – 5 – 3.
- 3. Basketbol:** Basketbol to'pini 8 imkoniyatdan jarimadan tashlash.  
**Me'yor:** (aniq otilgan to'plar soni / marta) 5 – 4 – 2 – 1.
- 4. Yengil atletika:** 1000 metrga yugurish.  
**Me'yor:** (daqiqa/soniya) 3,40 – 4,00 – 4,30 – 5,00.

### **4-Bilet**

- 1. Yengil atletika:** 60 metrga yugurish.  
**Me'yor:** (soniya) 9,0 – 9,5 – 10,0 – 10,5.
- 2. Gimnastika:** Arg'amchida 1 daqiqa davomida sakrash.  
**Me'yor:** (marta) 90 – 80 – 70 – 65.
- 3. Futbol.** To'pni zarb bilan uzoqqa tepish (o'ng va chap oyoqda tepilgan to'plar yig'indisi).  
**Me'yor:** (metr) 60 – 55 – 50 – 40.
- 4. Yengil atletika:** Yugurib kelib tennis to'pini (150 gr) uloqtirish.  
**Me'yor:** (metr) 45 – 40 – 33 – 25.

### **5-Bilet**

- 1. Yengil atletika.** Yugurib kelib uzunlikka sakrash.  
**Me'yor:** (sm) 400 – 360 – 320 – 300.
- 2. Gimnastika.** Qo'shpoyada turli harakat mashqlarini (yurish, burilish) bajarish. "Qaldirg'och" hosil qilish.  
**Me'yor:** Texnikasiga ahamiyat qaratish.
- 3. Voleybol.** Voleybol texnika elementlarini bajarish: to'pni ikkila qo'l bilan qabul qilish, uzatish, to'pni yuqoridan uzatish (uzatilgan to'p maydonning belgilangan joyiga albatta tushishi).  
**Me'yor:** Texnikasiga ahamiyat qaratish.
- 4. Yengil atletika:** 4x10 metrga mokisimon yugurish.  
**Me'yor:** (soniya) 9,5 – 9,8 – 10,3 – 10,8.